

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.O.Raxmonova	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
Sh.G.Akbarova	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus.....	1107
Sh.G.Akbarova	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri	1111
Sh.G.Akbarova	
О некоторых тайнах Французских артиклей	1115
D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva	
Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
G.S.Mirzayeva	
Lingvokultremalar tarjimasida translitratsiya usuli.....	1122
N.K.Abbasova	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
A.A.Qayumov, A.B.Kosimova	
Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi	1130
D.I.Mirzayeva	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida	1137
Sh.B.Dushatova	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms	1140
Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
Z.M.Xalilova	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida	1148
A.S.Toshmatov	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education)	1153
N.X.Qurbonov	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners	1160
D.E.Normatova	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....	1166
D.R.Axmadaliyeva	
Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
N.Sh.Abdullayeva	
Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....	1177
S.A.Aliyeva	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....	1182
S.A.Aliyeva	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari	1185
M.A.Axundjanova	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students	1189
R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova	
Turli tizimli tillarda so'z yasashining umumiy va farqli jihatlari	1193
F.B.Abduraximova	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi	1203
Sh.F.Latipov	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....	1208
L.T.Galimullina	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals	1210



UO'K: 821.512.133-32

JAHON ADABIYOTIDA DRABLLARNING O'RGANILISHI
ИССЛЕДОВАНИЕ ДРАББЛОВ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ
STUDY OF DRABBLES IN WORLD LITERATURE

Qayumov Abdurahob Abdurashidovich¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, PhD, dotsentKosimova Azizaxon Botirali qizi² ²Farg'ona davlat universiteti, chet tillari kafedrasini ingliz tili o'qituvchisi.**Annotatsiya**

Ushbu maqola jahon adabiyotida, xususan, ingliz adabiyotshunosligida drabbl janrining taraqqiyot bosqichlari, ularning xususiyatlari, bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda, xususan, ingliz adabiyotidagi tutgan o'rni haqida so'z olib boradi. Shuningdek, drabbl yangi janr bo'lishiga qaramay ushbu sohada ko'plab zamonaviy yozuvchilar va ularning asarlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, mashhur ingliz yozuvchilari yaratgan asarlar (hikoya, kichik hikoya, drabblar) va ularning janr xususiyatlari, ular yaratgan drabblardagi voqealiklar, tanlangan iboralar va albatta drabblarning talab darajasida yaratilganligini tahlil qiladi.

Аннотация

В данной статье говорится об этапах развития жанра драббл в мировой литературе, особенно в английской литературе, их особенностях и месте в сегодняшней современной литературе, особенно в английской литературе. Также, несмотря на то, что драббл – новый жанр, анализируются многие современные писатели в этой области и их произведения. Кроме того, анализируются произведения известных английских писателей (рассказы, рассказы, драбблы) и их жанровые характеристики, реалии в созданных ими драбблах, выбранные фразы и, конечно же, драбблы созданы на уровне востребованности.

Abstract

This article talks about the stages of development of the drabble genre in world literature, in particular in English literature, their features and role in today's modern literature, in particular in English literature. Also, despite the fact that drabble is a new genre, many contemporary writers in this field and their works are analyzed. In addition, the works of famous English writers (stories, stories, drabbles) and their genre characteristics, the realities in the drabbles they created, selected expressions and, of course, drabbles created by order are analyzed.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, soha, janr, kichik hikoya, drabbl, asar, yo'nalish, uslub.**Ключевые слова:** литературоведение, направление, жанр, рассказ, драббл, произведение, направление, стиль.**Key words:** literary studies, field, genre, short story, drabble, work, direction, style.**KIRISH**

So'nggi yillar davomida dunyo adabiyotida barcha adabiy janrlar tobora rivojlanib kitobxonlar o'rtasida bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xususan, hikoya janrining taraqqiyot bosqichlari ham XX asrda tashkil topib bugungi kunda ham ommalashib borayotgan drabbl janri haqida to'xtalsak. Ma'lumki, ingliz adabiyotida hikoya janri jahon adabiyotida birinchilardan bo'lib tashkil topgan va rivojlanib kelayotgan adabiyotlardan hisoblanadi. Dunyo adabiyoti, xususan, ingliz adabiyoti ko'plab yozuvchilarning asarlari orqali rivojlandi. Turli xil manbaa va ma'lumotlar ko'zdan kechirilganda Mark Tven, Jeyn Osten, Jeyms, Joys, Uilyam Bleyk, Jefri Choser, Charlz Dikens, Jorj Eliot kabi mashhur ijodkorlar ingliz adabiyotshunosligi taraqqiyotiga, keyinchalik hikoya janri rivojiga katta hissa qo'shganliklari ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

TILSHUNOSLIK

O'rta asrlarning eng buyuk ingliz yozuvchilaridan biri va ko'pincha "ingliz adabiyotining otasi" sifatida tanilgan ijodkor Jefri Choser hisoblanadi. Uning mashhur asarlaridan biri "Kenterberi ertaklari" ingliz hikoyachiligini rivojlanishiga turtki bo'ldi. Sababi, ushbu asar 24 ta hikoyadan iborat to'plam bo'lib, o'sha davrning ijtimoiy hayoti, tabaqalari hamda mashhur shaxslari tanqidiy yoritilgan. Bundan tashqari, ushbu asar ingliz tili rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Sababi, Choser davrida yozuvchilar asosan lotin va fransuz tillarida ijod qilishgan. Lekin, Jefri Choser esa o'z asarlarini ingliz tilida yaratgan. Jefri Choser o'rta asr ingliz adabiyotining so'nggi yirik vakili bo'lib, uning ijodi ingliz adabiy tili va ingliz adabiyotining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, uni ingliz tili va ingliz realistik adabiyotining asoschisi ham deb atashadi [1Xolbekov,2014B 7].

Keyingi ingliz yozuvchilardan biri Charlz Dikpens bo'lib, hikoya janrida shuhrat qozongan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning "A Tale of Two Cities", "Great Expectations", "Oliver Twist" kabi asarlari ingliz hikoya janrining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dikpensning ingliz hikoyachiligiga qo'shgan asosiy hissalaridan biri uning yorqin va esda qolarli qahramonlaridir. Yozuvchining ijod namunalari hisoblangan "A holiday Romance", "A message from the Sea", "Doctor Marigold", "Hunted Down", "The Lamplighter" [2 <https://www.dickens-online.info/short-stories.htm>] asarlari qisqa hikoya janriga oid manunalardir. Dikpensning hikoyalari ijtimoiy muammolarni yoritishda va ijtimoiy islohotlarni targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, Dikpensning hikoyalari kuchli axloqiy mavzular bilan ajralib turadi. Uning asarlarida, ko'pincha, qutqarish, rahm-shafqat, sevgi va kechirimlilik kabi masalalar o'rtaga tashlangan. Charlz Dikpensning ingliz hikoya janridagi roli juda katta. Uning esda qolarli personajlar yaratishi, boy tasvirlash uslubi, ijtimoiy masalalarni o'rganishi va asarlaridagi tarbiyaviy ahamiyatga ega qahramonlar -- bularning barchasi ingliz adabiyotidagi eng buyuk hikoyachilardan biri sifatida uning adabiy merosiga hissa qo'shgan. "Tanqidchilarning ba'zi qarashlaridan farqli o'laroq, Ch.Dikpens g'ayrioddiy xarakterlash texnikasiga ega ijodkordir, aks holda, kitobxon-o'quvchilar uning barcha qahramonlarini allaqachon unutgan bo'lar edi" [3 Berdiyeva, 2023, B 68].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Mark Tven taxallusi bilan asarlar yaratgan yozuvchi Semuel Lengxorn Klemens Amerika adabiyotida hikoya janri toliq rivojlangan davrda ijod qilgan bo'lsa-da, [4 Messent, 2019 B 100] ushbu soha taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Mark Tvenning birinchi muvaffaqiyatli qisqa hikoyasi 1865 yilda yaratilgan bo'lib, "The Celebrated Jumping Frog of Calavers Country" asari hisoblanadi [5 Lewis, 2015 B 90]. Yozuvchining asarlari tasvir vositalaridan keng foydalanishi bilan boshqa yozuvchilarning hikoyalaridan ajralib turadi. Sababi, Mark Tvenning ko'plab hikoyalarni o'qigan kitobxon hikoyaning boshidanoq unda tasvirlanayotgan atmosferani ko'z oldiga keltiradi. Jumladan, yozuvchining "Garoyib o'g'rilik" hikoyasida keltirilgan birinchi jumla, *Qishning izg'irinli tuni...* demak, voqealar qish faslida sodir bo'ladi hamda kitobxon ko'z oldida sovuq ob-havo gavdalanadi. Shuningdek, aynan ushbu hikoyada yoritilgan harakterning naqadar bosiq inson ekanligini yozuvchi foydalangan jumalardan sezish mumkin.

- O, janob, ketyapsizmi? Sovuq juda zabtiga oldi-ku! Ko'rinishingizdan siz ham juda sovqotgan ko'rinasiz. Qani, orqamdan yuring-chi! [6 Xurshiddavron e-kutubxona]

Ushbu jumla dokondorning do'koniga tushgan o'g'riga qarab aytgan gapi bo'lib, uni o'g'riligini payqaganiga qaramay "O, janob, ketyapsizmi?" deb kesatq ohangida gapiradi. Albatta, bu yozuvchining hikoyalaridagi qahramonlarning xususiyatini yana-da yoritib beradi. "Mark Tven nafaqat bolalar hayotini, balki yoritilgan davrning oddiy odamlari hamda kundalik hayotiy dunyosini gavdalan tiradi" (7 G'aniyeva, 2023 B 98).

Shuningdek, Edgar Allan Po, Ernest Hemingvay, James Joys, Frans Kafka, Ketrin Mensfild va boshqa bir qator yozuvchilar ham hikoyachilik yo'nalishida ijod qilib, ushbu janr rivoji uchun katta mehnat qildilar. Shuningdek, yangi va zamonaviy kichik hikoya, ya'ni drabllarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Mazmunli, rang-barang va ma'noli voqeliklarni ma'lum bir cheklangan miqdorda yozish yozuvchidan katta mahorat talab qildi hamda davrlar mobaynida hikoyalardagi hajm qisqarishi yozuvchilar orasida ommalashib, ularning hikoya yozish qobiliyatlarini yana-da rivojlantirdi.

Jumboqli asarlari bilan kitobxonni chuqur fikrlashga undovchi, o'quvchiga to'g'ridan to'g'ri voqelikni aniq bayon etuvchi mashhur nemis yozuvchisi Frans Kafka hisoblanadi. Uning ilk hikoyalari 1905- yildan boshlab turli jurnallarda chop etila boshladi, 1905-yili "Bir kurash bayoni"

novellasida 2 ta parcha, 1908-yili asarlaridan 8 ta parcha, 1913-yili "Hukm", "O't yoquvchi" hikoyalari, 1916-yili esa "Evrilish" novellasi chop etilgan. [8 Qosimov, 2021 B19] Frans Kafka hikoyalari ingliz adabiyotida muhim iz qoldirdi va uning asarlari bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasida muhim asarlar qatoriga kirib, o'quvchilarning taniqli fikrlashi va chuqur tahlil qilishiga turtki bo'ldi. Sababi, yozuvchining hikoyalari o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Frans Kafkaning hikoyalari, odatda, ekzistensial muammolar, surreal muhit va absurd vaziyatlar mavjud. Frans Kafka hikoyalarida hayotiy tajribasi natijasida falsafiy yondashuvni ko'rishimiz mumkin. [9 Sidra, 2019 B 3] Murakkab yozuv uslubi sababli o'quvchilar, ko'pincha, Frans Kafka hikoyalarini tahlil qilish uchun chuqurroq tushunishga harakat qilishlari kerak. Misol tariqasida yozuvchi ijodidagi "Bir kurash bayoni" novellasi tarkibiga kiruvchi "Daraxtlar" hikoyasini olsak:

"Illo, biz qishda kesilgan daraxtlar misolimiz. Go'yo, ular qorga shunchaki sirpanib tushgan-u, yengilgina turtib yuborilsa, ular o'rnidan qo'zg'oladigandek. Yo'q, ularni qo'zg'atib bo'lmaydi, ular muzlab yerga mahkam yopishib qolgan. Biroq, taassufki, bu shunday tuyuladi, xolos" [10 Qosimov, 2011 B 26]

Ushbu asardan yozuvchining ijodi juda murakkab va mavhum ekanligini ko'rishimiz mumkin. Frans Kafka asarlarida oddiy so'zlardan foydalanishi, biroq, o'quvchini qayta-qayta o'qishga va chuqur mushohada qilishga majbur qilishi bilan kitobxonlar orasida mashhur bo'lsa, Edgar Allan Po nafaqat ingliz adabiyotida hikoya janrini ommalashishi, balki fantastik hamda detektiv janrlarining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning 1841- yilda yozgan "Morg ko'chasidagi qotillik", 1842- yilda esa "Mari Roje siri", 1843- yilda "Tilla qo'ng'iz" hamda 1845- yilda yozgan "O'g'irlangan maktub" asarlari detektiv janrdagi asarlar namunasi. [11 https://uzpedia.uz/pedia/edgar_allan_poe]. Edgar Allan Poning qisqa hikoyalari tarkibiga kiruvchi "The Tell-Tale Heart", "The Cask of Amontillado", "Hop-Frog", "The Facts in the Case of M. Valdemar", "William Wilson" asarlari turli-xil mavzularni yotiritib bergan bo'lib, chuqur psixologik tahlil hamda sirliligi bilan boshqa yozuvchilarning asarlaridan ajralib turadi.

Shuningdek, "Edgar Allan Po asarlarining asosiy xususiyati u kichik hikoyalarda "yagona xissiy effekt" ning mavjudligidir. Shuning uchun ham Po o'ziga xos tasavvur egasi sifatida tanilgan" [12 Yunhadi, 2014 B 2].

Jahon adabiyotida drabllar ilk marotaba 1980-yillarda Britaniyada yozilishi boshlangan. XVIII asrga qadar tarkibi 100 ta so'zdan oshmagan asar yozilmagan, lekin ushbu janrning rivojlanishiga yordam bergan kichik hikoyalar yaratilishi boshlangan. Masalan, Vashington Irvingning 1819- yilda yaratgan mashhur "The Sketch of Geoffrey Crayon" to'plamiga oid bo'lgan "The legend of sleepy hollow" va "Rip Van Winkle" asarlari Amerika adabiyotidagi qisqa hikoyalarning ilk namunalaridir. [13 Margaret, 1914 B 128] Amerikalik va Yevropalik adiblar Irving ijodidan so'ng kichik hikoya janriga qiziqish bildirishdi va turli xil mavzularda ijod qilishdi. Xususan, mashhur yozuvchi Nataniel Xotorn kichik hikoyalarda odob-axloq mavzularini olib chiqdi. [14 <https://americanboard.org/Subjects/english/historical-development-of-the-short-story>]

Yuqorida aytib o'tilganidek, drabllning eng asosiy xususiyatlaridan biri uning kutilmagan yechim bilan yakun topishi hisoblanadi. Buyuk ingliz yozuvchisi O.Genrining "The gift of the magic" asari hajm jihatidan drabllga misol bo'lmaydi, ammo asarni o'qigan kitobxon asarning o'zi kichik voqealardan tashkil topganini sezishi aniq. Bundan tashqari ushbu asarning kutilmagan yechim bilan yakunlanishi drabllga xos xususiyatlarni mavjudligini ko'rsatadi. Sababi, asarda er-xotin bir-birlariga Rojdestvo sovg'asini olishga qaror qilishadi. Ayol turmush o'rtog'ning soati uchun maxsus zanjir sotib olishi uchun uzun sochlarini kesadi, er esa ayoli uzun sochlarini tarashi uchun taroq olmoqchi bo'ladi va soatini sotadi. Ushbu asarda zid belgilar, sadoqat va mehr mavzulari mohirlik bilan yoritilgan.

XULOSA

Ingliz adabiyotida aynan drabll janrida ijod qilgan hamda yangi soha bo'lganligi sababli bugungi kunda ham izlanishlar olib borayotgan bir qator yozuvchilarning izlanishlarida ushbu janrga xos namunalarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Margaret Drabble, Lidiya Devis, Margaret Atvud, Nil Gayman, R.Tolkien, K. Klark, Molly Giles va boshqa bir qator yozuvchilar mavjud.

O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, drabll janrida yetarlicha o'rganilmagan masalalar mavjud. Biroq, zamonaviy adabiyotshunoslikda, xususan, o'zbek hamda jahon

TILSHUNOSLIK

adabiyotida drabllar va ularning funksiyalari, ahamiyati hamda xususiyatlariga oid bir qator maqola va tezislar chop etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.N. Xolbekov. Ingliz adabiyoti klassiklari. – Jizzax.: JDPI, 2014
2. <https://www.dickens-online.info/short-stories.htm>
3. Berdiyeva Sitora Utkirovna. Charlz Dikkens asarlarida inson ruhiyati tasviri ("Great expectations" (buyuk umidlar) asari misolida) "Innovation science and research international scientific journal volume 1 issue3", 2023
4. Messent, Peter. Short fiction. (2019) *Mark Twain in Context*, pp. 100-108. January 2019
5. Lewis, Randy (May 14, 2015). "[The frog that jump-started Mark Twain's career](#)". *Los Angeles Times*. Retrieved November 18, 2018
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/mark-tven-ikki-hikoya.html>
7. Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna. Mark tven ijodi haqida mulohazalar , "Sifatti ta'lim – taraqqiyot. poydevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 2023-yil 20-apel
8. A. Qosimov, S. Xo'jayev. XX asr G'arb adabiyotidan amaliy mashg'ulotlar. "Akademnashr" T.: 2011 bet-19
9. Sidra Kafka's. Kafka's short stories... Polysemic analysis of the world symbols. International Bulletin of Linguistics & Literature (IBLL) Vol. 2 No.2 2019. P. 3
10. A. Qosimov, S. Xo'jayev. XX asr G'arb adabiyotidan amaliy mashg'ulotlar. "Akademnashr" T.: 2011 B. 26
11. https://uzpedia.uz/pedia/edgar_allan_poe
12. Yunhadi Wuwuh. Intrinsic analysis of the short stories by edgar allan poe. Lingua, Vol. 11, No. 1, Maret 2014. P. 2. e-ISSN: 2442-238X
13. Margaret Ashmun, Modern short stories . "The Macmillan". 1914, bet-128
14. <https://americanboard.org/Subjects/english/historical-development-of-the-short-story>.